https://wordlyknowledge.uz/index.php/gpble
Qabul qilingan sana: 07.12.2025
Nashr etilgan sana: 30.01.2026

O'ktamova Ruxsora O'tkirjon qizi

Buxoro Davlat Tibbiyot Instituti oilaviy tibbiyotda ichki kasalliklar kafedrasi assistenti, tayanch doktorant
ruxsoraa4321@gmail.com

GERONTOLOGIK AMALIYOTDA KORONAR YURAK KASALLIGI: RETROSPEKTIV TAHLIL VA EPIDEMIOLOGIK KO'RSATKICHLAR BO'YICHA KASALLIK VA O'LIM DARAJALARI

Maqsad: Buxoro viloyatida keksa va qari yoshdagi aholida o'tkir miokard infarkti natijasida kasallik va o'lim darajasini taqqoslash maqsadida besh yillik retrospektiv analitik va epidemiologik tadqiqot o'tkazildi.

Material va usullar: Retrospektiv monitoring 2019–2023 yillarda amalga oshirildi. Birlamchi MI kasallanishi va o'lim holatlari bo'yicha yillik ma'lumotlar viloyat statistika boshqarmasidan olindi. Ushbu hisobotlar asosida 60–89 yoshdagilar tanlab olinib, Buxoro viloyati va Buxoro shahri aholisi doirasida alohida tahlil qilindi.

Natijalar: 60–74 yoshdagi erkaklar orasida MI natijasidagi o'lim darajasi 86,7% dan 78,6% gacha kamaygani qayd etildi ($p>0,05$). Shu bilan birga, 75–89 yoshdagi erkaklarda o'lim 1,2 baravar oshdi (13,3% dan 21,4% gacha, $p<0,05$), 60–74 yoshdagi ayollarda esa keskin 2,4 baravar oshdi (38,5% dan 92,9% gacha, $p<0,05$). Aksincha, 75–89 yoshdagi ayollarda o'lim 2022–2023 yillarda sezilarli darajada 54,4% ga kamaydi (61,5% dan 7,1% gacha, $p<0,001$). Umumiy o'lim darajasi bu davrda 75–89 yoshdagi ayollarda −33,3%, erkaklarda −17,2% ni tashkil etdi ($p<0,05$). 60–74 yosh guruhida o'lim darajasi erkaklarda (82,8%) ayollarga (66,7%) nisbatan yuqoriroq edi ($p<0,05$). Taqqoslash natijalari jins va yoshga bog'liq sezilarli farqlar hamda Buxoro viloyati va Buxoro shahri o'rtasida tafovutlarni ko'rsatdi.

https://wordlyknowledge.uz/index.php/gpble
Qabul qilingan sana: 07.12.2025
Nashr etilgan sana: 30.01.2026

Xulosa: Keksa yoshli aholida MIni erta tashxislash va oldini olish imkoniyatlari yetarli emasligi, hamda aholi orasida bu muammo yaxshi hal etilmagani aniqlanmoqda. Epidemiologik skrining viloyat miqyosidagi profilaktik strategiyalar uchun samarali vosita bo‘lib xizmat qilishi, keksa va qari yoshdagi aholi orasida MI yukini kamaytirishga yordam berishi mumkin.

Kalit so‘zlar: monitoring, keksa yosh, o‘lim, miokard infarkti, profilaktika, gerontologiya.

КОРОНАРНАЯ БОЛЕЗНЬ СЕРДЦА В ГЕРОНТОЛОГИЧЕСКОЙ ПРАКТИКЕ: РЕТРОСПЕКТИВНЫЙ АНАЛИЗ И ЭПИДЕМИОЛОГИЧЕСКИЕ ПОКАЗАТЕЛИ ЗАБОЛЕВАЕМОСТИ И СМЕРТНОСТИ

Цель: Провести пятилетнее ретроспективное аналитическое и эпидемиологическое исследование с целью сравнения показателей заболеваемости и смертности от острого инфаркта миокарда (ИМ) среди пожилого и старческого населения Бухарской области.

Материалы и методы: Ретроспективный мониторинг проводился в 2019–2023 гг. Ежегодные данные о первичной заболеваемости ИМ и смертности получены из отдела статистики области. На основе этих данных была выбрана популяция в возрасте 60–89 лет, проведён отдельный анализ для населения Бухарской области и города Бухара.

Результаты: Отмечено, что среди мужчин 60–74 лет смертность от ИМ снизилась с 86,7% до 78,6% ($p>0,05$). В то же время среди мужчин 75–89 лет смертность увеличилась в 1,2 раза (с 13,3% до 21,4%, $p<0,05$), а среди женщин 60–74 лет она резко возросла в 2,4 раза (с 38,5% до 92,9%, $p<0,05$). Напротив, среди женщин 75–89 лет смертность в 2022–2023 гг. значительно снизилась на 54,4% (с 61,5% до 7,1%, $p<0,001$). Общая смертность за этот период составила −33,3% среди женщин 75–89 лет и −17,2% среди мужчин ($p<0,05$). В возрастной группе 60–74 лет смертность была выше у мужчин (82,8%), чем у женщин (66,7%) ($p<0,05$). Сравнение результатов показало

https://wordlyknowledge.uz/index.php/gpble
Qabul qilingan sana: 07.12.2025
Nashr etilgan sana: 30.01.2026

значительные различия, связанные с полом и возрастом, а также различия между показателями в Бухарской области и городе Бухаре.

Вывод: Возможности ранней диагностики и профилактики ИМ среди пожилого населения недостаточны, а проблема плохо решена на уровне популяции. Эпидемиологический скрининг может служить эффективным инструментом для реализации профилактических стратегий на уровне области и способствовать снижению нагрузки ИМ среди пожилых и старческих возрастных групп.

Ключевые слова: мониторинг, пожилой возраст, смертность, инфаркт миокарда, профилактика, геронтология.

CORONARY HEART DISEASE IN GERONTOLOGICAL PRACTICE: MORBIDITY AND MORTALITY RATES RETROSPECTIVE ANALYTICAL AND EPIDEMIOLOGICAL

Objective: A five-year retrospective analytical epidemiological study was conducted to compare morbidity and mortality from acute myocardial infarction (AMI) among the elderly and senile population in the Bukhara region of Uzbekistan.

Methods: Retrospective monitoring was carried out between 2019 and 2023. Annual data on primary AMI incidence and mortality were obtained from the regional statistics department. Based on these reports, cases among individuals aged 60–89 years were selected and analyzed separately for the Bukhara region and Bukhara city.

Results: A decline in AMI mortality was noted among men aged 60–74 years, decreasing from 86.7% to 78.6% ($p>0.05$). However, mortality increased 1.2-fold among men aged 75–89 (from 13.3% to 21.4%, $p<0.05$), and sharply rose 2.4-fold among women aged 60–74 (from 38.5% to 92.9%, $p<0.05$). In contrast, mortality among women aged 75–89 significantly declined by 54.4% between 2022–2023 (from 61.5% to 7.1%, $p<0.001$). Overall mortality during this period was −33.3% in women and −17.2% in men aged 75–89 ($p<0.05$). In the 60–74 age group,

https://wordlyknowledge.uz/index.php/gpble
Qabul qilingan sana: 07.12.2025
Nashr etilgan sana: 30.01.2026

mortality remained higher in men (82.8%) than in women (66.7%) ($p<0.05$). The comparison revealed noticeable sex- and age-related differences as well as disparities between Bukhara region and Bukhara city.

Conclusion: The elderly population appears to lack sufficient access to early diagnosis and prevention of AMI, which remains poorly addressed at the community level. Epidemiological screening may serve as an effective tool for regional preventive strategies, supporting efforts to reduce AMI burden among elderly and senile individuals.

Key words: monitoring, elderly, mortality, myocardial infarction, prevention, gerontology.

Kirish. 2015-yildan buyon yurak-qon tomir kasalliklari (YQTK) butun dunyoda o‘limning yetakchi sababi bo‘lib kelmoqda. Jahon sog‘liqni saqlash tashkiloti (JSST) ma’lumotlariga ko‘ra, 2012-yilda dunyo bo‘yicha 17,5 million kishi YQTK oqibatida vafot etgan bo‘lib, bu barcha o‘limlarning 31 % ini tashkil etgan. Shulardan 7,4 million kishi koronar yurak kasalligi (KYK) tufayli vafot etgan. Ishemik yurak kasalligi (IYUK) yurak-qon tomir kasalliklari bo‘yicha murojaatlarning umumiy 26,6 % ni, kattalar aholisi orasida kasallanish esa 20,1 % ni tashkil etadi. Koronar yurak kasalligi AQShdagi keksa yoshdagi aholida kasallanish va o‘limning asosiy sabablaridan biri bo‘lib, uning tarqalishi, davolash va natijalarida irqiy va etnik farqlar sezilarli darajada mavjud [28]. CDC Wonder ma’lumotlar bazasiga ko‘ra, 2022-yilda IYK natijasida 371,506 dan ortiq o‘lim qayd etilgan bo‘lib, bu sog‘liqni saqlash tizimiga katta yuk tushishini ko‘rsatadi [29, 30].

Koronar yurak kasalligining tarqalishi yosh oshgani sari keskin ortadi: 45–54 yoshda 2–5 % dan 65–74 yoshda 11–20 % gacha. Koronar yurak kasalligida letallik 3,02 % ni, miokard infarktida esa shifoxonadan chiqqan bemorlar orasida 4,5 % ni tashkil etadi. Keksa va qariyalar orasida o‘tkir miokard infarkti (O‘MI) bilan kasallanish va o‘lim ko‘rsatkichlarining epidemiologiyasi, ayniqsa O‘zbekiston hududlarida, yetarlicha o‘rganilmagan.

https://wordlyknowledge.uz/index.php/gpble
Qabul qilingan sana: 07.12.2025
Nashr etilgan sana: 30.01.2026

So‘nggi o‘n yilliklarda yurak-qon tomir tizimi kasalliklari, xususan, koronar yurak kasalligini (KYK) oldini olish sog‘liqni saqlash va tibbiyotning dolzarb vazifalaridan biri bo‘lib qolmoqda [1,2,4,5]. O‘lim ko‘rsatkichlarining sezilarli darajada oshishi yurak-qon tomir kasalliklarining keng tarqalganligi hamda birlamchi va ikkilamchi profilaktika tizimlarining samaradorligi pastligi bilan bog‘liq [6,7,9].

Ishemik yurak kasalligi va uning o‘tkir ko‘rinishlari — birlamchi va takroriy miokard infarkti — qon aylanish tizimi kasalliklaridan o‘limning asosiy sabablaridan hisoblanadi [3,8]. Mamlakatimizda miokard infarkti bilan kasallanish va undan o‘lim darajasi hanuzgacha yuqori bo‘lib qolmoqda. Shuni ta’kidlash kerakki, miokard infarktidan o‘lim keksa va qariyalar orasida yuqoriroq bo‘lib, u yurak-qon tomir patologiyalaridan bo‘lgan barcha o‘limlarning 2/3 qismini tashkil etadi [10].

Zamonaviy statistik tahlil usullari va tomirlarni revaskulyarizatsiya qilishning ilg‘or usullari faol o‘rganilayotganiga qaramay, barcha yosh guruhlarida miokard infarktidan o‘lim darajasi juda yuqori bo‘lib qolmoqda, yurak-qon tomir kasalliklarining dori-darmonsiz profilaktikasi esa takomillashtirilmoqda [11,12,13]. O‘zbekistonda ushbu patologiyaning tarqalishi ancha yuqori bo‘lib, u ko‘plab bemorlarning aynan shu nozologiya sababli vafot etishi tufayli ijtimoiy ahamiyatga ega kasallik hisoblanadi [14,15].

Olimlar ushbu patologiya iqtisodiy jihatdan rivojlangan mamlakatlarda ko‘proq uchrashini aniqlaganlar. Bu nogironlikka olib keluvchi eng keng tarqalgan patologiyalardan biridir. JSST ma’lumotlariga ko‘ra, erkaklar ayollarga nisbatan ko‘proq kasallanadi [17,19]. Statistik ma’lumotlarga ko‘ra, 40 yoshdan oshgan erkaklar orasida o‘tkir miokard infarkti chastotasi 1000 aholiga 2–6 holatni tashkil etadi [16,18].

Shahar aholisi qishloq aholisiga nisbatan ko‘proq kasallanadi, biroq bu ma’lumotlarni baholashda qishloq joylarda diagnostika imkoniyatlari cheklangan bo‘lishi mumkinligini ham hisobga olish lozim [20,21,22]. Miokard infarktini erta

https://wordlyknowledge.uz/index.php/gpble
Qabul qilingan sana: 07.12.2025
Nashr etilgan sana: 30.01.2026

tashxislash muammosi hanuz to‘liq hal etilmagan. Takroriy miokard infarkti ko‘plab asoratlar, yurak miokardining yanada yaqqol remodellasiyasi va yuqori o‘lim darajasi bilan kechadi.

Shuni inobatga olish kerakki, zamonaviy davolash usullarining erta va keng qo‘llanilishi natijasida birlamchi miokard infarktini boshdan kechirgan bemorlar soni ortib bormoqda, bu esa takroriy miokard infarkti bilan kasallangan bemorlar sonining sezilarli darajada ko‘payishiga olib kelmoqda [21,24]. Mintaqamiz sog‘liqni saqlash tizimi miokard infarkti bilan og‘rigan bemorlarni o‘z vaqtida dispanser kuzatuviga olish va ularni davolashni qat’iy ta’minlash masalalarida shifoxonalar va poliklinikalar o‘rtasida yetarli darajadagi o‘zaro hamkorlik yetishmasligidan aziyat chekmoqda.

Tadqiqot maqsadi.

O‘zbekiston Respublikasining Buxoro viloyatida keksa va qariyalar orasida o‘tkir miokard infarkti bilan kasallanish va o‘lim ko‘rsatkichlarini 5 yillik retrospektiv tahliliy epidemiologik tadqiqot asosida qiyosiy tahlil qilishdan iborat bo‘ldi.

Materiallar va tadqiqot usullari.

Retrospektiv monitoring 2019–2023-yillar davomida olib borildi. Har yili Buxoro viloyati statistika boshqarmasi hamda O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi ma’lumotlari asosida o‘tkir miokard infarktining birlamchi kasallanishi va undan o‘lim ko‘rsatkichlari to‘g‘risidagi axborotlar yig‘ildi. Ushbu ma’lumotlar asosida Buxoro viloyati va Buxoro shahrida 60–89 yosh oralig‘idagi aholida birlamchi kasallanish va o‘limning barcha holatlari ajratib olinib, tahlil qilindi.

Natijalar va muhokama.

5 yillik kuzatuv davomida (2019–2023-yillar) Buxoro viloyati va Buxoro shahrida 60–89 yoshdagi aholi orasida o‘tkir miokard infarktining (O‘MI) birlamchi kasallanishining o‘rtacha yillik darajasi mos ravishda 0,015 % va 0,007 % ni tashkil etdi ($p < 0,05$). Kuzatuvning birinchi (2019-yil) va oxirgi (2023-yil) yillari taqqoslanganda, O‘MI ning o‘rtacha tarqalishi oxirgi yilda sezilarli darajada yuqori bo‘lib, deyarli 2 baravarga oshgani aniqlandi ($p < 0,01$).

https://wordlyknowledge.uz/index.php/gpble
Qabul qilingan sana: 07.12.2025
Nashr etilgan sana: 30.01.2026

Yillar kesimida Buxoro viloyati va Buxoro shahrida keksa va qariyalar orasida O‘MI ning birlamchi kasallanish ko‘rsatkichlari quyidagicha bo‘ldi: 2019-yilda – 0,009 % va 0,006 % (p <0,05), 2020-yilda – 0,011 % va 0,113 % (p <0,01) (1-jadval).

Jadval 1

Keksa va qariya yoshdagi aholi orasida o‘tkir miokard infarktining (O‘MI) birlamchi kasallanish chastotasi, retrospektiv kuzatuv ma’lumotlariga ko‘ra

Kuzatuv yillari	Umumiy aholi	O‘MI birlamchi kasallanishi				P
		Buxoro viloyatida		Buxoro shahri atrofida		
		index	%	index	%	
2019	1815100 275000	173	0,009	17	0,006	<0,05
2020	1845730 275000	217	0,011*	31	0,113***	<0,01
2021	1869960 277891	224	0,012*	20	0,007	<0,05
2022	1899457 278049	448	0,023***	11	0,004	<0,01
2023	1924200 280600	348	0,018**	15	0,005	<0,01
Umumiy 2019-2023	9354447 1386540	1410	0,015*	94	0,007	<0,01

Izoh: Jadvalda 2015- yil guruhiga nisbatan farqlar ko‘rsatilgan; yuqori qatorda – Buxoro viloyati aholisi, pastki qatorda – Buxoro shahri aholisi.

Buxoro shahrida 60–89 yoshdagi erkaklar va ayollar orasida O‘MI bilan birlamchi kasallanishning 5 yillik dinamikasi bo‘yicha ko‘rsatkichlarni solishtirildi. Tahlil qilingan keksa bemorlar guruhida (94 nafar) O‘MI ning jinsiy tuzilmasi o‘rganildi (2-jadval).

https://wordlyknowledge.uz/index.php/gpble
Qabul qilingan sana: 07.12.2025
Nashr etilgan sana: 30.01.2026

Jadval 2

60–89 yoshdagi ayol va erkak aholida o‘tkir miokard infarkti (O‘MI) birlamchi kasallanishining 5 yillik dinamikasi


Tekshiruvdan o‘tgan guruhlar	Kuzatuv yillari					P		
	2019 (1)	2020 (2)	2021 (3)	2022 (4)	2023 (5)	<0,05	<0,01	<0,001
	index %	index %	index %	index %	index %			
Erkak aholi 60–89 yosh	10	19	14	8	13	3-1	-	-
	58,8*	61,3*	70,0**	72,7**	86,7***	4-1 5-1		
Ayol aholi 60–89 yosh	7	12	6	3	2	1-3	1-5	-
	41,2	38,7	30,0	27,3	13,3	1-4		
Umumiy	17	31	20	11	15	-	-	-
	100,0	100,0	100,0	100,0	100,0			

Tekshiruvdan o‘tgan O‘MI bilan kasallanganlar guruhida (94 nafar) kasallanish darajasi erkaklarda ayollarga nisbatan statistik jihatdan ishonchli darajada yuqori bo‘ldi va yillar bo‘yicha quyidagicha taqsimlandi: 2019-yilda – 58,8 % va 41,2 % ($p < 0,05$), 2020-yilda – 61,3 % va 38,7 % ($p < 0,05$), 2021-yilda – 70,0 % va 30,0 % ($p < 0,01$), 2022-yilda – 72,7 % va 27,3 % ($p < 0,01$), 2023-yilda esa – 86,7 % va 13,3 % ($p < 0,001$).

Viloyat aholisi orasida birlamchi kasallanishning statistik jihatdan ishonchli o‘sishi qayd etildi, Buxoro shahrida esa O‘MI tarqalishining oshish tendensiyasi statistik jihatdan ishonchsiz bo‘lib, uning aniqlanish darajasi nisbatan past bo‘ldi. Bu holat, ayniqsa keksa va qariyalar orasida, viloyat miqyosida O‘MI ga qarshi profilaktik chora-tadbirlarni yanada faol va erta bosqichda amalga oshirish zarurligini ko‘rsatadi.

https://wordlyknowledge.uz/index.php/gpble
Qabul qilingan sana: 07.12.2025
Nashr etilgan sana: 30.01.2026

Besh yillik kuzatuv davomida erkaklar orasida O‘MI ning birlamchi kasallanishi 58,8 % dan 86,7 % gacha oshdi, ya’ni 27,9 % ga yoki 1,4 baravarga ko‘paydi, bu esa yiliga o‘rtacha 5,6 % ni tashkil etdi (p <0,05). Keksa ayollar guruhida esa aksincha holat kuzatilib, O‘MI bilan kasallanish 2019-yildagi 41,2 % dan 2023-yilda 13,3 % gacha kamaydi, ya’ni 27,9 % ga yoki 3,2 baravarga qisqardi (p <0,001). Yillar bo‘yicha O‘MI tarqalishidagi farqlar statistik jihatdan ishonchli hisoblanadi. O‘MI va uning “yakuniy nuqtalari” erkaklarda ortib bormoqda (ehtimol, bu ularda xavf omillarining ko‘proq to‘planishi bilan bog‘liq), ayollarda esa kamayish tendensiyasi kuzatilmoqda (1-rasm).



Rasm 1. 2019–2023-yillarda jinsga qarab o‘tkir miokard infarkti birlamchi kasallanish dinamikasi (foizlarda).

Buxoro viloyati va Buxoro shahri bo‘yicha 5 yillik kuzatuv davomida olingan ma’lumotlar asosida umumiy o‘lim ko‘rsatkichlarining qiyosiy tahlilida tekshirilgan keksa aholi orasida o‘tkir yurak yetishmovchiligi (O‘YY) darajalari quyidagicha aniqlandi: 2019-yilda – 0,439 % va 0,477 % (p >0,05), 2020-yilda – 0,434 % va 0,479 % (p <0,05), 2021-yilda – 0,446 % va 0,489 % (p <0,05), 2022-yilda – 0,420 % va 0,499 % (p <0,05), 2023-yilda – 0,433 % va 0,486 % (p <0,05).

Shubhasiz, o‘lim statistik hisobini takomillashtirish, o‘limdan keyingi tashxisni shakllantirishga bo‘lgan yondashuvlarni aniqlashtirish, MKB-10 bo‘yicha o‘lim sabablarini belgilash va kodlashni yaxshilash, shuningdek, O‘YY sabablarini,

https://wordlyknowledge.uz/index.php/gpble
Qabul qilingan sana: 07.12.2025
Nashr etilgan sana: 30.01.2026

jumladan O‘MI va boshqa yurak-qon tomir kasalliklarini aniqlashtirishga qaratilgan turli aholi guruhlari orasida davriy klinik-epidemiologik tadqiqotlar o‘tkazish maqsadga muvofiqdir.

• 2020-yilda o‘lim holatlari faqat ayollar guruhida qayd etilib, 2 ta holatni (100,0 %) tashkil etdi, shuningdek 75–89 yoshdagi erkaklar orasida 1 ta holat (100,0 %) aniqlandi;

• 2021-yildan boshlab 60 yoshdan oshgan (90 yoshgacha) erkaklar va ayollar orasida o‘lim ko‘rsatkichlari keskin oshdi: 60–74 va 75–89 yoshdagi ayollarda o‘lim mos ravishda 60,0 % ($p < 0,001$) va 40,0 % ($p < 0,05$) chastotada qayd etildi, ya’ni O‘MI holatlari nisbatan ko‘proq keksa ayollar guruhida kuzatildi ($p < 0,05$); erkaklarda esa ushbu ikki yosh guruhida o‘lim holatlari mos ravishda 50,0 % ni tashkil etdi.

• 2022-yilda keksa va qariyalar yoshidagi erkaklar orasida miokard infarktidan o‘lim darajasi juda yuqori bo‘lib, mos ravishda 74,1 % va 25,9 % ni tashkil etdi ($p < 0,01$). Bu ko‘rsatkichlar 60–74 yoshdagi ayollarda 50,0 % va 75–89 yoshdagi ayollarda 50,0 % bo‘lgan O‘MI dan o‘lim darajasi bilan solishtirildi.

2023-yilda O‘MI dan o‘lim ko‘rsatkichi 60–74 yoshdagi ayollarda 75,9 %, 75–89 yoshdagi ayollarda 24,1 % ni tashkil etdi ($p < 0,001$). Shu yosh guruhidagi erkaklarda esa mos ravishda 70,8 % va 29,2 % bo‘ldi ($p < 0,01$).

2019–2023-yillar davomida keksa va qariyalar yoshidagi ayollarda barcha o‘lim holatlarining ulushi mos ravishda 63,1 % va 36,9 % ni tashkil etdi ($p < 0,05$), erkaklarda esa bu ko‘rsatkich 71,1 % va 28,9 % ga teng bo‘ldi ($p < 0,05$).

So‘nggi 3 yil ichida O‘MI dan o‘lim darajasi ayollarda 60,0 % dan 75,9 % gacha oshdi, ya’ni 15,9 % ga yoki 1,2 baravarga ko‘paydi ($p < 0,05$). Erkaklarda esa 60–74 yosh guruhida bu ko‘rsatkich 50,0 % dan 70,8 % gacha oshib, 20,8 % ga yoki 3,6 baravarga yetdi ($p < 0,001$).


75–89 yosh guruhida ayollar va erkaklar orasida O‘MI dan o‘lim darajasi pasayish tendensiyasini ko‘rsatdi: ayollarda 40,0 % dan 36,9 % gacha, ya’ni 3,1 %

https://wordlyknowledge.uz/index.php/gpble
Qabul qilingan sana: 07.12.2025
Nashr etilgan sana: 30.01.2026

ga (p >0,05), erkaklarda esa 50,0 % dan 28,9 % gacha, ya'ni 21,1 % ga kamaydi (p <0,05).

Bu holat, ehtimol, kuzatuvlar sonining kamligi bilan bog'liq. Umuman olganda, O'MI dan o'lim ko'rsatkichlarida jinsiy farqlar saqlanib qolmoqda. 60–74 yosh guruhida erkaklarda o'lim darajasi (71,1 %) ayollarga (63,1 %) nisbatan 8,0 % ga yuqori bo'lib, bu farq statistik jihatdan ishonchli (p <0,05). 75–89 yosh guruhida esa aksincha, ayollarda O'MI dan o'lim darajasi (36,9 %) erkaklarnikiga (28,9 %) nisbatan 8,0 % ga yuqori bo'ldi (p <0,05).

60–89 yoshdagi ayollar va erkaklar orasida O'MI dan o'limning umumiy o'lim tarkibidagi ulushi Buxoro shahri misolida 2-rasmda keltirilgan.



Rasm 2. Buxoroda keksa va qariya yoshidagi erkak va ayol aholi orasida o'tkir miokard infarktidan (O'MI) o'lim darajasi.

Shuni ta'kidlash joizki, 60–74 yoshdagi erkaklarda O'MI dan o'lim darajasining umumiy kamayishi va 2023-yilga kelib ko'rsatkichlarning 86,7 % dan 78,6 % gacha tushishi (p >0,05) fonida, 75–89 yoshdagi erkaklarda o'lim darajasi 1,2 baravarga (13,3 % dan 21,4 % gacha; p <0,05) oshdi. Ayollarda esa 60–74 yosh guruhida o'lim 2,4 baravarga (38,5 % dan 92,9 % gacha; p <0,05) ko'paydi.

2022–2023-yillar davomida 75–89 yoshdagi ayollar orasida O'MI dan o'lim 54,4 % ga, ya'ni 61,5 % dan 7,1 % gacha kamaydi (p <0,001). 75–89 yoshdagi

https://wordlyknowledge.uz/index.php/gpble
Qabul qilingan sana: 07.12.2025
Nashr etilgan sana: 30.01.2026

ayollarda umumiy o‘lim darajasi –33,3 %, erkaklarda esa –17,2 % ni tashkil etdi (p <0,05). 60–74 yosh guruhida O‘MI dan o‘lim erkaklarda (82,8 %) ayollarga (66,7 %) nisbatan yuqori bo‘ldi (p <0,05).

Ta’kidlash kerakki, 2022-yilgacha Buxoro shahri keksa va qariyalar orasida o‘lim holatlari soni kam bo‘lganligi sababli, ular tahlilga kiritilmadi. O‘MI bilan kasallanish va undan o‘lim bo‘yicha olingan ma’lumotlarni taqqoslash keksa (60–74 yosh) va qari yoshdagilar (75–89 yosh) orasida, shuningdek erkaklar va ayollar o‘rtasida ko‘rsatkichlarda sezilarli farqlar mavjudligini ko‘rsatdi. Shu bilan birga, Buxoro viloyati va Buxoro shahri o‘rtasida O‘MI bo‘yicha “yakuniy nuqtalar” (kasallanish va o‘lim) ko‘rsatkichlarida ham yaqqol tafovutlar aniqlandi.

Shu sababli, hatto bitta hudud doirasida turli populyatsiyalarda o‘tkazilgan bir xil turdagi retrospektiv tahliliy epidemiologik tadqiqotlar natijalarini solishtirish ilmiy va amaliy jihatdan asosli, foydali va aholi orasida profilaktik dasturlarni joriy etish uchun muhim hisoblanadi. Bunday tahlil nafaqat qiyosiy baho berish, balki populyatsiya darajasida, jumladan keksa va qariyalar orasida O‘MI ning yuzaga kelish xususiyatlari va “yakuniy nuqtalar”ining umumiy hamda o‘ziga xos qonuniyatlarini aniqlash imkonini beradi. Miokard infarkti bilan kasallanish va undan o‘lim ko‘rsatkichlarini aniqlashga qaratilgan urinishlar boshqa tadqiqotchilar tomonidan ham amalga oshirilgan bo‘lib, ular o‘z ishlarida rasmiy axborot manbalaridan olingan retrospektiv populyatsion ma’lumotlarga tayanganlar [21,22,28].

Xulosa.

Shunday qilib, keksa va qari yoshdagi aholi orasida O‘MI ning nozologik va erta tashxisi hamda profilaktikasi bilan bog‘liq yetarlicha hal etilmagan muammolar mavjud, bu masalalar esa deyarli populyatsiya darajasida muhokama qilinmaydi. Natijada noqulay epidemiologik vaziyat yuzaga kelishi mumkin. Buxoro misolida, bizning ma’lumotlarimizga ko‘ra, O‘MI dan o‘lim darajasi keksa va qariyalarda 74,1 % gacha, erkaklarda 82,8 % gacha va ayollarda 66,7 % gacha yetadi.

https://wordlyknowledge.uz/index.php/gpble
Qabul qilingan sana: 07.12.2025
Nashr etilgan sana: 30.01.2026

Epidemiologik skrining tajribasi kelgusida mintaqaviy profilaktik tadqiqotlarda foydali bo‘lishi, fan va amaliyot sa’y-harakatlarini birlashtirishga xizmat qilishi, shuningdek dolzarb geriatrik muammo — keksa va qariyalar orasida O‘MI/YQTK ni oldini olishga qaratilgan chora-tadbirlarni ishlab chiqishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati.

1. Adizova D.R., Ibrokhimova D.B., Adizova S.R. Adherence to treatment in chronic heart failure // Biology and Integrative Medicine. - 2020. - No. 6 (46). - FROM.
2. Alikhanova K.A., Omarkulov B.K., Abugalieva T.O., Zhakipbekova V.A. // Study of the prevalence of diseases of the cardiovascular system among the population of the Karaganda region. // Fundamental research. 2013. No. 9-5. pp. 804-809.
3. Belyaev A.A., Kotova O.V., Akarachkova E.S., Artemenko A.R. // Chest pain: focus on non-cardiac cardialgia // RMJ "Medical Review" No. 11 of 12/25/2018 pp. 9-14
4. Bolotnova T.V., Yusupov A.R., Kuimova Zh.V., Filonova M.V. // Risk factors for cardiovascular complications in patients older than 60 years. // Tyumen medical journal. 2014. T. 16. No. 2. pp. 11-12.
5. Garganeeva A.A., Kuzheleva E.A., Borel K.N., Parshin E.A. // Atypical course of acute myocardial infarction: clinical and anamnestic characteristics of patients, management tactics and outcomes (according to the "Register of acute myocardial infarction"). // Cardiovascular therapy and prevention. 2016. V.15. No. 4. pp.10-15.
6. Garganeeva A.A., Tukish O.V., Kuzheleva E.A. // Long-term survival of elderly and senile patients after myocardial infarction, depending on the tactics of management in the acute period of the disease. // Successes of gerontology. 2017. No. 5.709-715 pages.

https://wordlyknowledge.uz/index.php/gpble
Qabul qilingan sana: 07.12.2025
Nashr etilgan sana: 30.01.2026

7. Zhuraeva H.I. Relationship between myocardial infarction and metabolic syndrome //Biology and Integrative Medicine. - 2019. - no. 4 (32). - S. 66-77.
8. Zhuraeva Kh.I., Alimova Sh.A. Adequate assessment of the attitude to their health in the male and female population // Biology and Integrative Medicine. 2016. №2.
9. https://doi.org/10.15829/1560-4071-2015-11-70-74
10. Kozik V. A. // Acute myocardial infarction with ST segment elevation: risk markers and outcomes // Abstract of the dissertation for the degree of Candidate of Medical Sciences Novosibirsk - 2019, 22 pages
11. Kuzmichev D.E., Viltsev I.M., Chirkov S.V., Skrebov R.V. // Difficulties in diagnosing recurrent myocardial infarction in clinical practice // Problems of expertise in medicine, 2014, 44-45pages
12. Kurbanov R.D., Nikishin A.G., Pirnazarov M.M., Khasanov M.S., Nurbaev T.A., Yakubbekov N.T., Abdullaeva S.Ya. // Prognostic value of the results of laboratory and instrumental diagnostics in patients with acute myocardial infarction against the background of diabetes mellitus. // Eurasian Journal of Cardiology. 2013. No. 2. pp. 27-35.
13. Mavlonov N.Kh. The prevalence of chronic non-communicable diseases among the unorganized population of elderly and senile age // New day in medicine. - 2020. - no. 4. - pp. 657-663.
14. Nikishin, A. G., Pirnazarov, M. M., Yakubbekov, N. T., Abdullaeva, S. Ya., & Khasanov, M. S. (2012). Vremya gospitalizatsii i ishody ostrogo infarkta miokarda u pozhilykh patsientov tsentral'no-aziatskogo regiona [Hospital admission time and acute myocardial infarction outcomes in elderly patients from the Central Asian region]. *Cardiovascular Therapy and Prevention*, 11(2), 53–56.
15. Nikishin A.G., Pirnazarov M.M., Yakubbekov N.T., Abdullaeva S.Ya., Khasanov M.S. et al. // Predictive role of spectral parameters of heart rate

https://wordlyknowledge.uz/index.php/gpble
Qabul qilingan sana: 07.12.2025
Nashr etilgan sana: 30.01.2026

variability in patients with acute myocardial infarction on the background of diabetes mellitus. // Medical news. 2016. No. 1 (256). pp. 63-66.

16. Lisachenko, G. V., Budaev, A. V., Makshanova, G. P., & Ivanova, N. A. (2016). Water-electrolyte disturbances postresuscitation acute myocardial infarction and their value in disorders of systemic hemodynamics. *Complex Issues of Cardiovascular Diseases*, (3), 81-89. https://doi.org/10.17802/2306-1278-2016-3-81-89https://doi.org/10.17802/2306-1278-2016-1-55-59
17. Panteleev M.A., Ataullakhanov F.I. // Blood coagulation: biochemical bases// Journal of Clinical oncohematology. Basic Research and Clinical Practice 2008
18. Lakomkin, V. L., Abramov, A. A., Prosvirnin, A. V., Tereshchenko, A. S., Arutyunyan, G. K., Samko, A. N., & Kapelko, V. I. (2024). The structure of left ventricular relaxation in case of ventriculography. *Kardiologiia*, 64(8), 32–38. https://doi.org/10.18087/cardio.2024.8.n2640
19. Popov, S. V., Garganeeva, A. A., Borel', K. N., Kuzheleva, E. A., & Okrugin, S. A. (2016). Myocardial infarction in young patients: Long-term analysis of appearance, clinical course and strategies of management. *Complex Issues of Cardiovascular Diseases*, (4), 66–72. https://doi.org/10.17802/2306-1278-2016-4-66-72
20. Rakhmatova D.B. // Analysis of the risk factors of Chd in persons over 60 years among the population of the city of Bukhara. // Asian studies. India. 2019, No. 1. 33-38 pages
21. Rakhmatova D.B. // «Main» Symptoms and leading clinical options for the flow of acute coronary syndromes in women // Rakhmatova D.B. // Asian Journal of Multidimensional Research (AJMR)19, Volume: 8, Issue:11. page 69-74. DOI: 10.5958 / 2278-4853.2019.00307.0
22. M. Ya. Ruda, S.P. Golitsyn, N. A. Gratsiansky, A. L. Komarov, E. P. Panchenko, I. I. Staroverov, S. N. Tereshchenko, and I. S. // Diagnosis and

https://wordlyknowledge.uz/index.php/gpble
Qabul qilingan sana: 07.12.2025
Nashr etilgan sana: 30.01.2026

treatment of patients with acute myocardial infarction with ST segment elevation ECG Diagnosis and treatment of patients with acute myocardial infarction with ST segment elevation ECG // Recommendations published in the journal "Cardiovascular Therapy and Prevention" 2007; 6 (8), 415-500 pages

23. Ryzhova T.A. // Features of the course of myocardial infarction in women of elderly and senile age. // Abstract. dis. for the competition academic step. cand. honey. Sciences. Kemerovo, 2013 - 26 p.
24. Tukish O.V., Okrugin S.A., Yunusova E.Yu., Efimova E.V., Garganeeva A.A. acute myocardial infarction" //Advances in gerontology. 2016. V. 29. No. 1. 123–127 pages.
25. Chumakova, G. A., Pokutnev, A. P., & Veselovskaya, N. G. (2018). Clinical specifics of patients' state after revascularized myocardial infarction, depending on the baseline obesity status. *Russian Journal of Cardiology*, 23(5), 21–26. https://doi.org/10.15829/1560-4071-2018-5-21-26
26. Panteleev, M. A., & Ataullakhanov, F. I. (2012). [Title in English if available] / [Original Russian title]. *Cardiovascular Therapy and Prevention*, (1), 133–137. https://doi.org/10.15829/1560-4071-2012-1-133-137
27. Shu-Yun Xu, Fong-Lin Chen, Yung-Po Liau, Jing-Yang Huang, Oswald Ndi Nfor, Dei-Yu Chao // A Matched Influenza Vaccine Strain Was Effective in Reducing the Risk of Acute Myocardial Infarction in Elderly Persons: A Population-Based Study// Medicine (Baltimore), 2016 Mar; Vol. 95 (10), pp. e2869;
28. Nam, S. (2025). Coronary heart disease racial disparities among older adults in the U.S.: Systematic review, 2000–2024. *Archives of Gerontology and Geriatrics Plus*, 2(3), 100194. https://doi.org/10.1016/j.aggp.2025.100194

https://wordlyknowledge.uz/index.php/gpble
Qabul qilingan sana: 07.12.2025
Nashr etilgan sana: 30.01.2026

29. Faheem, M. S. B., Baig, M. M. S., Zafar, R., Hassan, S. T., Assad, A. A., Ali, T., Zeeshan, N., & Feroze, F. (2025). Trends in ischemic heart disease mortality among older adults with co-existing colorectal cancer in the US (1999–2023): A 25-year retrospective study. *The Egyptian Heart Journal*, 77, Article 96. https://doi.org/10.1186/s43044-025-00695-3
30. Centers for Disease Control and Prevention. Heart Disease Facts. Atlanta (GA): CDC; 2023 [cited 2025 Apr 13]. https://www.cdc.gov/heart-disease/data-research/facts-stats/index.html